jamoasining rolini alohida ko‘rsatib o‘tish lozim. Chunki mehnat jamoalari ekologik faoliyatini ishlab chiqarishning muayyan sohalarida namoyon qiladi, ya’ni mehnat faoliyatini ekologiyalashtirish, aynan mehnat jamoalarida sodir bo‘ladi. Beshinchidan, ta’lim-tarbiya tizimi shaxsni texnogen sivilizatsiya maqsadiga muvofiq shakllantirish imkoniyatlarini reallashtiradi, uning samaradorligi integratsiyalashuviga bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Turayev B.O. va boshqalar. Sinergetika-2: nazariya va amaliyot. Monografiya, Toshkent, «Fan ziyosi» nashriyoti, 2022, 404-bet.

(2). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 434-qarori. https://lex.uz/ru/docs/4354743

(3). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-farmoni. https://lex.uz/docs/6479180

(4). https://parliament.gov.uz/oz/articles/1769

(5). Ochilov J.A. Global texnogen sivilizatsiyaning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Monografiya, Toshkent, “Turon zamin ziyo”, 2017, 160-bet.

Xolova Umida (BuxDU tadqiqotchisi; ORCID:0009-0003-3624-3477)

TAMADDUNLAR TARAQQIYOTIDA MA’RIFAT KONSEPSIYASINING NAZARIY VA TARIXIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ma’rifat tushunchasi o‘z taraqqiyot bosqichida katta tarixiy davrni bosib o‘tgan bo‘lib, turli tarixiy davrlarda insoniyatning ilm-fanga bo‘lgan intilishi va aql-idrok asosidagi taraqqiyoti orqali shakllangan va rivojlanganligi, ma’rifat tushunchasining kelib chiqishiga doir masalalar nazariy, tarixiy asoslari tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ma’rifat, ma’rifatparvarlik, aql-idrok, ta’lim, tafakkur, g‘oya, gumanizm, mukammal jamiyat, qonunlar.*

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОНЦЕПЦИИ ПРОСВЕЩЕНИЯ В РАЗВИТИИ ЦИВИЛИЗАЦИЙ

Аннотация. *В данной статье рассматривается концепция просвещения, которая прошла через значительный исторический период своего развития, формировалась и развивалась через стремление человечества к науке и прогресс на основе разума и интеллекта в различные исторические эпохи. Проанализированы теоретические и исторические основы возникновения концепции просвещения.*

Ключевые слова: *просвещение, просвещение, разум, образование, мышление, идея, гуманизм, совершенное общество, законы.*

THE THEORETICAL AND HISTORICAL FOUNDATIONS OF THE CONCEPT OF ENLIGHTENMENT IN THE DEVELOPMENT OF CIVILIZATIONS

Annotation. *This article discusses the concept of enlightenment, which has passed through a significant historical period of development, shaped and evolved through humanity's striving for science and progress based on intellect and reason in various historical periods. The theoretical and historical foundations of the emergence of the concept of enlightenment are analyzed.*

Key words: *Enlightenment, enlightenment, intelligence, education, thinking, idea, humanism, social contract, perfect society, laws.*

Kirish. “Ma’rifat” so‘zi arab tilidagi “arafa” (“bilmoq”) so‘zi o‘zagidan yasalgan bo‘lib “bilmoq”, ma’nosini beradi. “مَعْرِفَة” (“ma’rifatun”) so‘zi “bilish”, “anglash” yoki “idrok etish” ma’nolarini ham anglatadi. Ma’rifat, tushunchasi diniy va ma’naviy bilimlarni ifodalashda ko‘proq qo‘llanilgan. Ya’ni, Alloh ma’rifatini anglash, Zot ma’rifatini tanish nuqtayi nazaridan ishlatilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma’rifat ma’naviy qaramlikdan chiqarib, insonga kuch-qudrat ilm, bilim beradi. Ma’rifatparvarlik harakati esa Renessans va islohot bilan boshlangan ijtimoiy va fikriy g‘oyalarning amalda qo‘llanilishini va har bir insonning bunga rioya qilish majburiyatini namoyon etishga urinishidir.[1] Undan tashqari, Abu Homid G‘azzoliy ma’rifatga quyidagicha ta’rif bergan: “Ma’rifat” so‘zining istilohiy ma’nosi maxsus lug‘at kitoblarida “Yaratuvchini tanimoq, anglamoq” deya ta’riflangan.

[1] Necip U. Aydinlanma felsefesinde ilerleme düşüncesi ve etkileri. Diyarbakir, 2006, s. 8.

Hikmatga koʻra, Yaratuvchini tanish oʻzining maqsadi Haqni tanish boʻlgan inson, avval, oʻzini tanimogʻi lozim.[1] Maʼrifatparvarlik harakatining asosini esa maʼrifatni targʻib qilish va jamiyatni rivojlantirish maqsadida ilm-fan, taʼlim va madaniyatni rivojlantirishga boʻlgan intilish, harakat tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuga oid tarixiy manbalar ustida ishlash, tarixiylik, matiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, qoʻlyozma manbalarni tarjima qilish uslublaridan foydalanildi.

Talqin va natijalar. Maʼrifat tushunchasi oʻzining kelib chiqishi va rivojlanishi jarayonida bir qancha muhim bosqichlarni oʻz ichiga oladi. Ushbu tushuncha tarixan turli madaniyatlar va falsafiy anʼanalar orqali shakllangan. Quyida esa maʼrifat tushunchasining kelib chiqishi va qoʻllanilish davrlariga doir baʼzi asosiy qarashlarni tasniflash mumkin:

1. Arab tilidan kelib chiqishi. "Maʼrifat" soʻzi arab tilidagi "maʼrifah" (مَعْرِفَة) soʻzidan olingan boʻlib, bu soʻz "bilish", "anglash" yoki "idrok etish" maʼnolarini anglatadi. Arab tilida maʼrifat, asosan, diniy va maʼnaviy bilimni ifodalashda qoʻllanilgan.

2. **Qadimgi yunon falsafasi.** Maʼrifat tushunchasining rivojlanishida qadimgi yunon falsafasi ham muhim rol oʻynagan. Platon va Aristotel kabi faylasuflar bilish va haqiqatni anglash masalalarini oʻrganib, ma'rifatni insonning eng oliy maqsadi deb bilishgan. Aynan Platon ham oʻz davrida donolik, aql-idrokka asoslanib, boshqarilgan davlatni mukammal tuzilishga ega deya taʼkidlagandi. Platon donolik deganda oddiy bilimni emas, balki eng oliy bilimni, yaʼni, davlatni boshqarish, uning ichki ishlarini yoʻnaltirish va tashqi munosabatlarini toʻgʻri amalga oshirish qobilyatini tushunadi.[2]

3. Oʻrta asrlarda rivojlanish. Oʻrta asrlar davomida musulmon olimlar, masalan, Ibn Sino, Al-Forobiy va Al-Gʻazzoliy kabi mutafakkirlar ma'rifat tushunchasini yanada rivojlantirgan. Ular aql, ilm va tajriba orqali maʼrifatga erishishning muhimligini taʼkidlagan. Bu davrda ma'rifat, koʻpincha, ilm-fan va din oʻrtasidagi bogʻliqlik sifatida koʻrilgan. Abu Homid Gʻazzoliy maʼrifatga quyidagicha taʼrif bergan: "Maʼrifat" soʻzining istilohiy maʼnosi maxsus lugʻat kitoblarida "Yaratuvchini tanimoq, anglamoq" deya taʼriflangan. Hikmatga koʻra, Yaratuvchini tanish oʻzining maqsadi Haqni tanish boʻlgan inson, avval, oʻzini tanimogʻi lozim.[3] Sharq falsafasining oʻziga xos jihatlaridan biri bu maʼrifat tushunchasining Allohni tanish, anglash maʼnolarida qoʻllanilishidadir.

4. Maʼrifatparvarlik davri. XVIII asrda Yevropada maʼrifatparvarlik (Enlightenment) davri boshlandi. Bu davrda maʼrifat tushunchasi aql va ilmiy bilimlar orqali jamiyatni rivojlantirish gʻoyasi bilan bogʻlangan. Maʼrifatparvarlar bilish va tafakkur orqali ijtimoiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirishga intilganlar.

5. Zamonaviy tushuncha. Bugungi kunda "maʼrifat" tushunchasi zamonaviy bilim, taʼlim va maʼnaviyat bilan bogʻliq holda tushuniladi. U nafaqat diniy yoki falsafiy kontekstda, balki ijtimoiy, madaniy va ilmiy sohalarda ham muhim ahamiyatga ega. Maʼrifat insonning intellektual va maʼnaviy rivojlanishiga, bilimga intilishiga va boshqalar bilan aloqalarini yaxshilashga yordam beradi. "Maʼrifat" soʻzi, koʻpincha, bilim va aql-idrok orqali oʻzini va atrof-muhitni anglash, chuqur tushunish jarayonini bildiradi.

Maʼrifat tushunchasining qamrovi keng boʻlib, quyida esa uning mohiyatini toʻliq ochib beruvchi asosiy jihatlar:

1. Bilim va ilm. Maʼrifat – bilim olish, ilm-fan bilan shugʻullanishni anglatadi. Bu maʼnoda maʼrifat ilmiy va madaniy taraqqiyot bilan bogʻliq. Maʼrifat ilmiy va madaniy taraqqiyot uchun juda muhim hisoblanadi, chunki u bilim va anglash darajasini oshirib, insoniyat rivojiga katta hissa qoʻshadi. Maʼrifat orqali insonlar ilmiy yangiliklarni yaratish va kashfiyotlar qilish imkoniyatiga ega boʻladi, bu esa, oʻz navbatida, texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtiradi. Ilm-fan sohasida maʼrifat olamni chuqur tushunish va tahlil qilishga imkon beradi.

2. **Anglash jarayoni.** Insonning oʻz aql-idroki va tajribasi orqali dunyoni tushunishi va anglash jarayonini ifodalaydi. Maʼrifatda anglash jarayoni inson ongining bilim va tushuncha shakllanishi jarayonini anglatadi. Bu jarayon davomida inson atrofidagi olamni bilib olish, turli koʻrinishdagi maʼlumotlarni oʻzlashtirish va ulardan maʼlum bir maʼnoni chiqarib olishga harakat qiladi. Anglash jarayonida idrok qilish, tushunish, tahlil qilish va turli xil mulohazalarga asoslangan xulosalar chiqarish kabi faoliyatlar ishtirok etadi.

3. Oʻrganish va oʻzlashtirish. Maʼrifat, koʻpincha, bilimlarni oʻrganish va oʻzlashtirish jarayoni sifatida ham talqin qilinadi. Bu jarajonda oʻrganilgan bilimlar hayotga tatbiq etiladi.

---

[1] A.H.Gʻazzoliy. Ihyou ulumid din. T., "Matbaachi", 2024, 3-bet.

[2] Платон. Государство. М., "Академический проект", 2015, с. 380.

[3] A.H.Gʻazzoliy. Ihyou ulumid din. T., "Matbaachi", 2024, 3-bet.

4. Ma'naviy yuksalish. Ko'plab holatlarda ma'rifat nafaqat ilmiy bilimlarni, balki ma'naviy o'sishni ham anglatadi. Bu insonning ma'naviy jihatdan boyishi, o'zligini anglash va axloqiy tamoyillarni tushunish jarayonini bildiradi. Shuningdek, "ma'rifat'so'zi keng ko'lamli lug'aviy ma'nolarga ega bo'lib, ilm-fan va madaniyatdan tortib, ma'naviy-axloqiy jarayongacha bo'lgan tushunchalarni qamrab oladi.

Ma'rifatparvarlikning qamrov doirasi yuqori bo'lib, nafaqat ilm-fan jarayonlarini, balki ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jihatlarini ham qamrab olishi bilan tavsiflanadi:

1. Ma'naviyat va axloqning rivojlanishi. Ma'rifatparvarlik faqat bilim olishni emas, balki axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashni ham targ'ib qiladi. Ma'rifatparvarlar insonni har tomonlama kamolga yetkazishni, ya'ni, nafaqat aqliy, balki ma'naviy va axloqiy jihatdan ham rivojlanishni ta'minlashni o'z oldlariga maqsad qilib qo'ydilar. Ular odamlarga halollik, mehnatsevarlik, mas'uliyat va ijtimoiy burch kabi fazilatlarni singdirishga harakat qildilar.

2. Madaniy uyg'onish va milliy o'zlikni anglash. Ma'rifatparvarlik milliy madaniyatni qayta tiklash va mustahkamlash yo'lida katta o'rin tutdi. O'z tarixini va madaniyatini bilish orqali xalq o'zligini anglab, o'z madaniy merosini qadrlay boshladi. Bu esa milliy uyg'onish va mustamlakachilikka qarshi harakatlar uchun zamin yaratdi.

3. Til va adabiyotning roli. Ma'rifatparvarlar adabiyotni keng qatlamlarga yetkazish orqali ma'rifat tarqatishni ko'zladilar. Tilni rivojlantirish va ommalashtirish maqsadida ular asarlar yozib, ularni xalq tilida chop etishga harakat qildilar. Shuning uchun ham ular milliy til masalalariga juda katta e'tibor bilan qaradilar. Zotan, Fitrat ta'kidlagandidek, dunyoni eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili yana xud turkchadir.[1] Ma'rifatparvarlarimiz aynan ana shu holatdan, tilimizni qutqarib, tilimiz sofligini saqlashga harakat qilib, milliy tilimizni qayta shakllantirishga harakat qilganlar.

4. Innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalar. Ma'rifatparvarlik nafaqat ta'lim va adabiyotga e'tibor qaratgan, balki zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni jamiyat hayotiga joriy etishni qo'llab-quvvatlagan. Ular ilm-fanning yutuqlarini qabul qilish va hayotda tatbiq etish orqali jamiyatni oldinga siljitishga intilganlar.

5. Ommaviy ta'lim va bilimning keng tarqalishi. Ma'rifatparvarlar jamiyatning har bir a'zosiga ta'lim olish imkoniyatini yaratishga intilganlar. Ular faqat boylar va aristokratlar emas, balki jamiyatning barcha qatlamlariga bilim olish huquqini berishga harakat qilganlar. Shu sababli ko'p joylarda yangi maktablar, kutubxonalar va ilmiy markazlar ochilgan. Zotan, mashhur ma'rifatparvar Abdulla Avloniy: "Yoshlarimizdan madaniyatga loyiq ravishda o'qub, diniy va madaniy kishilar hozirlansa, tarbiya va ta'limg'a mohir olim va olima, adib va adibalarimiz yetushsa, maktab va madrasalarimiz muntazam va tartiblik bo'lsa, ziroat, sanoat va tijorat ishlariga mohir kishilar yetushub, zamonag'a muvofiq ravishda ish yuritilsa, tartiblik "Dorulyatim"–yetimxonalar, "Dorulojizin"–kambag'alxonalar, kutubxonalar va qiroatxonalar ochilsa, shirkatlar barpo qilinsa, yuqorida dedigimiz kabi, xalqimiz orasida zamonag'a loyiq ulum va fu-nundan boxabar ulamolarimiz ko'paysa, och va yalang'och kishilarimizning maishatlarini tuzatmak uchun harakat qilinsa, o'qutilsa, axloq va odob o'rgatilsa, shul vaqtda eskincha orasidan chiqub, haqiqiy madaniyat bo'stonig'a yuzlang'on hamda madaniyat to'lqunlaridan qutulub, sohili salomatg'a chiqg'on bo'lur eduk. Sohili salomatg'a chiquvimizga zamon musoid verurmi, vermasmi bilmaymiz,[2]deya ta'kidlagan fikri bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas. Hamma davrda ham ilm – fan, ma'rifat masalalari o'z dolzarbligini yo'qotmaydi va jamiyatni rivojlantiruvchi asosiy kuch bo'lib qolaveradi. Ma'rifat nafaqat diniy yoki milliy boylik, balki global ilmiy va madaniy taraqqiyotning asosi sifatida qadrlanadi. Umuman olganda, ma'rifat tushunchasi insoniyatning bilishga, rivojlanishga va komillikka intilishi natijasida shakllangan va turli davrlar hamda madaniyatlarda yangicha ma'nolar bilan boyib kelgan.

Xulosa. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda ilm-fan va ma'rifat juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma'rifat zamonaviy Yangi O'zbekiston jamiyatining ma'naviy va madaniy rivojlanishida, yosh avlodni tarbiyalashda va bilimli hamda yuksak malakali kadrlarni tayyorlashda eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, o'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish va ta'lim sifatini oshirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ma'rifatning muhimligini yana bir bor namoyon etadi. Ma'rifatdan uzoqlashgan jamiyatning halokati muqarrar. Bugun o'zbek xalqi mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab jahon hamjamiyatiga o'zining boy tarixi, ma'naviy xazinasi bilan qo'shilayotgan ekan, bu yo'nalishda ma'rifat-

[1] https://ziyouz.uz/matbuot/jadid-matbuoti/abdurauf-fitrat-tilimiz-1919/

[2] A.Avloniy. Madaniyat to'lqunlari. https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/abdulla-avloniy.html

ning salmog‘i beqiyos. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarni saqlash va zamonaviy dunyo bilan hamnafas bo‘lish orqali o‘zlikni anglash va rivojlanishning o‘ziga xos yo‘li shakllanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ma’rifatparvarlik–bu muayyan tarixiy davrning feodallikka qarshi yo‘nalganligi, intilishi bilan xarakterlanadigan mafkuraviy oqimi ijtimoiy adolatsizlikni, cherkov jaholatini, falsafiy mistitsizmni tag-tomiri bilan yo‘q qilish tarafdorlari bo‘lgan. Ma’rifatchilik kengroq tushuncha bo‘lib, u, o‘z navbatida, uning tarkibiy qismi bo‘lgan ma’rifatning o‘zini ham o‘z ichiga oladi.[1]

Xaitov Lazizbek Azamatovich (BuxDU “Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD); falsafa.phd.1991@mail.ru)

HAKIM TERMIZIY MA’NAVIY MEROSINING TASAVVUFIY-FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Hakim Termiziy ma’naviy merosidagi “Buduvvu sha’n Abu Abdulloh Termiziy” (“Hakim Termiziy yo‘lining boshlanishi”), “Adabun nafs” (Nafs odobi), “Riyozatun nafs” (Nafs riyozati), “Xatm ul-avliyo” (Valiylar muhri), “Ma’rifat ul-asror”, “Manozil ul-ibod min al-iboda” (Bandalarning bandachilikdagi manzillari), “Bayon ul-kasb” (Kasb-tirikchilik bayoni) kabi asarlaridagi tasavvufiy-falsafiy g‘oyalari tahlili amalga oshirilgan.*

Kalit so‘zlar*: falsafa, tasavvuf, nafs tarbiyasi, gnoseologiya, ilm, ma’rifat, bilim, hikmat, donishmandlik, inson, ontologiya, akmeologiya, valiylik (valoyat), rizq va kasb.*

Хаитов Лазизбек Азаматович (Бухарский государственный университет, доцент кафедры “История ислама и источниковедение, философия”, доктор философии по философским наукам (PhD); falsafa.phd.1991@mail.ru)

СУФИЙСКО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ ХАКИМА ТЕРМИЗИ

Аннотация. *В данной статье проведен анализ суфийско-философских идей великих мыслителей, таких как Хаким Термизи, в его духовном наследии, включая работы: “Будувву ша’н Абу Абдуллох Термизи” (“Начало пути Хакима Термизи”), “Адабун нафс” (“Одеяние души”), “Рийозатун нафс” (“Усилия души”), “Хатм уль-авлийо” (Печать святых), “Ма’рифат уль-асрар” (“Познание тайн”), “Манозиль уль-ибод мин аль-ибода”(“Адреса поклоняющихся рабов”), “Баян ул-касб” (“Пояснение о средствах существования”).*

Ключевые слова: *философия, суфизм, воспитание души, гносеология, знание, познание, мудрость, разумность, человек, онтология, акмеология, святительство (валият), удел и средства существования.*

Xaitov Lazizbek Azamatovich (Bukhara state university, associate professor of the chair of “History of Islam and source studies, philosophy”, Doctor of philosophy in philosophical sciences (PhD); falsafa.phd.1991@mail.ru)

SUFI-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE SPIRITUAL LEGACY OF HAKIM TIRMIZI

Annotation. *This article provides an analysis of the Sufi-philosophical ideas of great thinkers, such as Hakim Tirmizi, within his spiritual legacy, including the following works:* “Buduwu sha'n Abu Abdulloh Tirmizi” *(“The Beginning of the Path of Hakim Tirmizi”),* “Adabun nafs” *(“The Clothing of the Soul"),* “Riyozat un-nafs” *(“The Efforts of the Soul”),* “Khatm ul-awliya” *(“The Seal of the Saints”),* “Ma'rifatul asrar” *(“Knowledge of the Secrets”),* “Manazil ul-ibad min al-ibad” *(“The Stages of the Servants' Worship”),* “Bayan ul-kasb” *(“Explanation of the Means of Subsistence”).*

Keywords: *philosophy, Sufism, soul cultivation, epistemology, knowledge, gnosis, wisdom, reason, human, ontology, acmeology, sainthood (wilayah), sustenance and livelihood.*

Kirish. Jahon ilm-fanida, xususan, yetakchi ilmiy markazlar, tadqiqot institutlarida Sharq mutafakkirlari ilmiy, falsafiy merosining qiyosiy tahlili asosida ma’rifatli zamonaviy shaxsni tarbiyalash, inson borlig‘i, axloqiy poklik, hayotning ma’nosini anglash, ma’naviy kamolotga erishish, ilm va hunarga ega bo‘lish, insonni ezgu faoliyatga yo‘naltirishga oid qator fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan Hakim Termiziyning inson kamolotiga oid tasavvufiy-falsafiy qarashlarida ilgari surilgan ilm, ma’rifat, yaxshi xulq, hikmatni anglashga oid g‘oyalarining insonparvar maqsadlarga asoslanganligini falsafiy-tarixiy tadqiq etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Hakim Termiziy (820–932) “Hakim ul-avliyo” (Valiylar hakimi), “Qudvat ulavliyo” (Avliyolar mayog‘i), “Mashoyixi kibor” (Ulug‘ shayx), “Olimi usuli ad-din” (Din usuli olimi), “Ash-Shayx” (Alloh ilmi bilimdoni), “Al-Alloma Sayyid” (Payg‘ambar avlodlari), “Muhaddis” (Hadisshunos), “Az-Zohid” (Din-

[1] Д.Ш.Цырендоржиева, А.Ц.Батуева. Просвещение и просветительство: сущность и отличительные черты “Вестник Бурятского государственного университета”, 14/2013, с. 35.